



TARVUZ O'SIMLIGIGA O'G'IT ME'YORI TA'SIRINI O'RGANISH

“Biologiya” kafedrasи q.x.f.d.prof.G’.M.Satipov

UrDU “Biologiya” kafedrasи magistri G.Sh.O’razbayeva

Tarvuz –qovoq doshlar oilasiga mansub bir yillik o’simliklar turkumiga kiruvchi poliz ekini hisoblanadi. Tarvuz o’simligining chiqib kelish markazi Janubiy tropik va Markaziy Afrika hisoblanadi. Tarvuzning shakllanish va tarqalish markazi Misrdir. Bu yerda tarvuz 4000 yil avval ma'lum bo’lgan. Tarvuzning chiqib kelish markazlaridan biri Hindistondir. Eramizdan oldingi II asrda bu yerda tarvuz yetishtirila boshlagan. Ayniqsa poliz ekinlari yer yuzasining tropik, subtropik va mo’tadil iqlimli barcha mamlakatlarda 6,2 mln. hektar maydonga ekilib, 142,4 mln. tonna yalpi hosil yetishtiriladi. O’zbekistonning tuproq-iqlim sharoiti ekinlar yetishtirish uchun qulay bo’lgani uchun, qadimdan o’stirilgan. Ayniqsa, qovun mevasining oziqaligi va mazasi yuqori bo’lganligidan qadimdan Markaziy Osiyo xalqlarining eng muhim va sevimli mahsuloti bo’lib kelgan.[1]

Tarvuzning ildizi o’q ildiz bo’lib ,uzunligi 1 m va bundan ham ko’proq chuqurroqqa tushib boradi.Poyasi yer bag’irlab yoyilib o’sadi.Tarvuzning yon palaklar soni ko’p(6 va undan ko’p),o’rtacha (4-6) va oz (4 dan kam bo’ladi.Palaklari 2m dan ortiq bo’lsa –uzun,1,2-2 m bo’lsa o’rtacha va 1,2 mdan kam bo’lsa –qisqa hisoblanadi.Barglari poyada ketma-ket joylashgan bo’lib,rangi kulrang-yashil,to’q yashil va yashil rangda bo’ladi.Barg bandi uzun,yaproqlari yaxlit,3 yoki 5 qirqilgan, yosh bargchalari qalin tuklar bilan qoplangan.Gullari sariq rangda bo’lib,qovun singari 5 xil gul hosil qiladi: Ular funksional erkak , chin erkak ,funksional urg’ochi , chin urg’ochi va germafrodit gullar.Pastdan yuqoriga tomon gullaydi.Mevasi sharsimon,elipssimon,tuxumsimon,noksimon ,silindrsimon shakllarda bo’ladi.Mevasining katta-kichikligiga ko’ra yirik ,o’rtacha va mayda ko’rnishlarda uchraydi.Mevasining asosiy rangi oq,och ko’k,to’q ko’k va sariq bo’ladi.Mevalarning sirtidagi guli ,ya’ni yo’llari va dog’lari bir muncha to’qroq rangda bo’ladi.Meva po’sti qalin yoki yupqa konsistensiyasiga ko’ra yog’ochsimon ,mo’rt bo’lishi mumkin. Meva eti pushti,qizil,kamdan-kam hollarda sariq yoki oq rangda bo’ladi.Urug’I katta-kichikligiga ko’ra yirik,o’rtacha va mayda xillarga bo’linadi.rangi oq,sarg’ish,jigarrang,qizil qora va kulrang ko’rinishlarda bo’ladi.Urug’larning sirtida mayda yoki yirik dog’lardan jimgimasi bo’ladi.Shakli cho’ziq va keng ovalsimon,uzunligi



14-28 mm, 1000 dona urug' og'irligi 50-10 g sindirilgan oq , shishasimon, yarim shishasimon yoki unsimon. Har xil tur va navlarni uzoq asrlar davomida qayta-qayta chatishtirish natijasida har bir mamlakatning tuproq-iqlim sharoitiga mos tarvuz navlari va shakllari paydo bo'lgan.[2]

Tarvuz tuproq va havo haroratiga juda talabchan o'simliklar biri bo'lib, qisqa kun o'simligi. Ayniqsa, urug' unib chiqish davrida yuqori harorat bo'lishi lozim. Shuning uchun ham tarvuz ko'proq cho'l va yarim cho'l mintaqalarida, Janubiy va Sharqiy-janubiy nohiyalarda va urug'I 16-17 °C da unib chiqadi. Bundan past haroratlarda tarvuz urug'larining unib chiqish xususiyati pasayib, urug'lar chirib ketadi, yoki unib chiqqan taqdirda ham ko'chatlar sust rivojlanadi. 25-30°C da yaxshi o'sib rivojlanadi. Tarvuz bo'z, o'tloq tuproqlar va yangidan o'zlashtirilgan yerlarda yaxshi o'sadi. Jahondagi ko'pgina mamlakatlarda, asosan, Osiyoda ekiladigan asosiy don ekini va aholining asosiy oziq-ovqatidir. Tarvuz mevasi tarkibida o'rta hisobda 10-12 % quruq modda, shu jumladan, 6-11 % shakar, 0,5 % oqsil, 0,5 % kletchatka, 0,1 % moy, 0,3 % kul moddalari mavjud. Tarvuz mevasi S vitaminiga (5-10 mg %), A; V1 ; B2; RR va boshqa vitaminlarga boy. Bundan tashqari, ular tarkibida temir, kalsiy, kaliy va oltingugurt tuzlari bor. Qandli diabet, yurak-tomir kasalliklari, ateroskleroz, kamqonlikni, buyrak kasalligini davolashda tarvuz mevasidan foydalaniladi.

Navlari: Respublikamizda tarvuzning 17 ta nav va duragaylari rayonlashtirilgan bo'lib, ulardan 11 tasi istiqbollidir. Mamlakatimizda rayonlashtirilgan tarvuz navlarini o'suv davri uzunligiga ko'ra 3 guruhg'a kiritish mumkin: ertapishar navlar - O'rinboy, Olmos, Mahalliy Mozaichniy, O'zbek - 452; O'rtapishar navlar - Korol Kubi - 92, Mramorniy, Dilnoz, Neobichniy, Sputnik; kechpishar navlar - Qo'zivoy 30, Hayit - qora, Guliston.[3]

O'zbekistondagi barcha Universitetlarda polizchilikni rivojlantirish, yangi navlarni yaratish, hosildorlikni oshirish, tarvuz yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha yirik ilmiy tekshirish ishlari olib boriladi.

Tarvuz tuproqning mexanik tarkibi va suv fizik xossalariiga talabchandir. Nordon tuproqlar tarvuz o'simligi uchun yaroqsizdir. Ular tuproq pH ko'rsatkichi 6,5-7,7 bo'lganda yaxshi o'sadi. Poliz o'simliklari tuproq sho'rlanishiga turlicha munosabatda bo'ladilar, xususan, qovoq o'simligi qovun va tarvuzga nisbatan sho'rlanishga chidamlidir. Qovun va



tarvuz unga nisbatan sho'rlanishga chidamsiz. Tarvuzda agronomic sho'rlanishga chidamligi xlor bo'yicha 0,015-0,02 %. Tarvuz o'simligining sho'rqa chidamli bir qancha navlari yaratilgan. Barcha o'simliklar kabi, poliz ekinlari mineral oziqlanish moddalaridan azot, fosfor va kaliyga talabchan. Shu moddalarning biri kam miqdorda bo'lishi o'simlikning hayotida u yoki bu salbiy o'zgarishlarga olib keladi. O'zbekiston tuproqlari kaliy bilan yaxshi ta'minlanganligi sababli, bu yerlarda azotli va fosforli o'g'itlardan foydalanish katta ahamiyatni kasb etadi. Mineral oziqlanishga poliz ekinlarining talabchanligi o'suv davrining turli pog'onalarida har xil, bu esa o'sish jarayonining faolligiga bog'liqdir. O'suv davri boshida o'sish tezligi sust bo'ladi, shu sababli mineral moddalar kam o'zlashtiriladi. O'simliklar vegetativ va generativ qismlarining intensiv o'sishi natijasida - oziqa moddalari o'zlashtirilishi tezlashadi, o'suv davri oxirida esa - yana sustlashadi. Organik o'g'itlar (go'ng) ham poliz ekinlari o'sishiga yaxshi ta'sir etadi. Poliz ekinlaridan muttasil yuqori hosil olish uchun organik va mineral o'g'itlarni zarur miqdorlarda ishlatish maqsadga muvofiqdir.[4]

Tarvuzdan yuqori hosil olish uchun gektariga 225 kg azot, 225 kg fosfor va 150 kg kaliy, organic o'g'itlar gektariga 25 tonna solinadi. Yillik me'yoriga nisbatan organic va kaliyli o'g'itlarning hammasi, fosforning 70-75% asosiy shudgorga solinadi. Fosforli o'g'itning qolgan 25-30 % va azotning 50 % ekish oldidan yoki birinchi chopiqda beriladi: azotli o'g'itning 50-55% ekinlar gullay boshlanganda ikkinchi chopiqda egatlarga 10-12 sm chuqurlikka solinadi. Yerga azotli va fosforli o'g'itlarni birgalikda solish alohida-alohida solishga qaraganda ko'proq samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo'stonov Z., Usmonov I. "Polizchilik" (ma'ruzalar matnlari) Andijon 2007 y
2. Bo'riyev X., Ashurmetov O., "Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi" Toshkent-2010 y
3. Zuev V., Qodirxo'jaev O., Adilov M., Akramov U. "Sabzavotchilik va polizchilik" Toshkent 2010 y
4. M. Xalimova. "Qovun va tarvuz yetishtirish" 16-kitob Agrobank -2021